

ELEKTRON TIJORATDA TUZILGAN SHARTNOMALARDA NAZARDA TUTILGAN MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA'MINLASH CHORALARI

Maqolani yozdi: **M.T.Komilov**, Biznes huquqi fakulteti, magistrant.

Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

mansurbekkomilov31dimi@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada e-tijorat ishtirokchilari o'rtasida shartnomalar tuzishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar, ushbu jarayonda yuzaga keladigan xavf-xatarlar, ularni bartaraf etish, shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash choralari haqida so'z yuritiladi.

ANNOTATION

This article talks about the aspects that should be paid attention to when concluding contracts between e-commerce participants, the risks that arise in this process, their elimination, and measures to ensure the fulfillment of the obligations stipulated in the contracts.

Kalit so'zlar: e-tijorat, elektron savdo maydonchasi, shaxsga doir ma'lumotlar, eskrou xizmati, marketpleys.

1. KIRISH

Bugungi kunda texnologik rivojlanishlar va innovatsiyalarning joriy etilishi natijasida elektron tijoratning ahamiyati har qachongidan-da ortib bormoqda. "Uzum", "Olicha", "Zoodmall" kabi yangi mahalliy va xorijiy marketpleyslarning vujudga kelayotganligi O'zbekistonda ham bu sohaga bo'lgan qiziqishlarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa 2020-yilda mamlakatda COVID-19 virusi tarqalishi tufayli karantin tartibining joriy etilishi odamlarni elektron tijorat xizmatlaridan foydalanishga yanada ko'proq majbur etdi. Ko'chaga chiqish taqiqlangan paytlarda, aynan elektron tijorat fuqarolar hayotida, yashash uchun kerak bo'lgan va boshqa ikkilamchi mahsulotlarni sotib olishlarida muhim ahamiyat kasb etdi.

Elektron tijorat haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, uning nima ekanligini tushunib olishimiz lozim. Elektron tijorat — tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi¹.

¹ O'RQ-792-son 29.09.2022-yildagi "Elektron tijorat to'g'risida", Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son, 2-modda.

Ya'ni elektron tijorat tovarlarni onlayn sotish va sotib olishdir. U insonlar va yuridik shaxslar internet orqali tranzaksiyalarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan raqamli bozor hisoblanadi. E-tijorat do'konga jismonan kuch sarflab borish o'rniga, mahsulotlarni sotib olishdan avval ularni ko'rib chiqish, xaridlarni amalga oshirish va hatto xizmatlarning haqini to'lash uchun kompyuter yoki telefondan foydalanish imkonini beradi. Elektron tijorat kiyim va gadjetlarga buyurtma berishdan tortib parvozlar va mehmonxonalarni bron qilishgacha bo'lgan keng ko'lamli faoliyatni qamrab oladi.

Elektron tijorat va u orqali yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar an'anaviy tijorat natijasida ro'y beradigan huquqiy munosabatlardan keskin farq qiladi. Elektron tijorat an'anaviy tijorat olib borishdan ko'ra bir qancha ko'proq afzalliklarga ega bo'lsa-da, uni amalga oshirishda ehtimoliy xatarlar ko'proq, u orqali tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishni kafolatlaydigan omillar esa kamroq. Elektron tijorat olib borishda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar anchayin murakkab tuzilishga ega bo'lib, tartibga solinish jarayonida ham alohida qarashlar va yechimlarni talab qiladi. An'anaviy tijoratda uning ishtirokchilari bir-biri bilan yuzma-yuz ko'rishish orqali o'zaro ishonchni yuzaga keltirish imkoniga ega bo'lsalar, elektron tijoratda bu jihat mavjud emas, ya'ni insonlar hali ko'rmagan va tanishib ulgurmagan shaxslar bilan shartnomalar tuzadilar. Bu, o'z navbatida, firibgarlik qurboni bo'lish, majburiyatlarning uzoq vaqt bajarilmay qolib ketishi, tomonlar o'rtasida ishonchsizlik, e-tijorat xizmatlarini rad etib, anchayin murakkab jarayon bo'lgan an'anaviy tijoratdan foydalanish va buning natijasida vaqt, mablag', mehnat singari resurslarning ortiqcha sarflanishi kabi qator muammolarni keltirib chiqaradi. Mana shu muammolarni hal etishda esa shartnoma shartlarini bajarishni ta'minlash choralari muhim ahamiyat kasb etadi.

2. | E-TIJORATDA TUZILGAN SHARTNOMALARDA NAZARDA TUTILGAN MAJBURIYATLARNI BAJARISHGA TO'SIQ BO'LUVCHI OMILLAR

Elektron tijorat rivojlanishda davom etar ekan, ushbu sohadagi shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shartnomalar har qanday biznes bitimining asosi bo'lib, tomonlar o'rtasida qonuniy kuchga ega bo'lgan kelishuvni ta'minlaydi. Elektron tijoratda shartnoma taraflar o'rtasida shartnomaning shartlarini elektron hujjatlar va xabarlarini tasdiqlash yo'li bilan kelishish orqali elektron hujjat shaklida rasmiylashtiriladi. Hujjatlarni shakllantirish taraflarning kelishuviga ko'ra amalga oshirilishi mumkin.

Shartnoma akseptni amalga oshirish yo'li bilan:

elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash nazarda tutiladigan elektron hujjat

tarzida;

elektron tijorat ishtirokchisining roziligi bildirilgan elektron xabar tarzida; ofertada ko'rsatilgan shartlarni bajarishga doir harakatlarni bajarish orqali tuzilishi mumkin.

Shartnoma ofertani yuborgan elektron tijorat ishtirokchisi tomonidan ofertaning aksepti olingan paytdan e'tiboran tuzilgan deb e'tirof etiladi.

Shartnomani bajarish bilan bog'liq hujjatlar elektron hujjat tarzida yoki qog'ozda rasmiylashtirilishi mumkin.² Ya'ni e-tijoratda kontragentlar tovar xarid qilayotganlarida yoki xizmatlardan foydalanayotganda, ishni masofadan turib bajaradilar va o'z-o'zidan ma'lumki, ular shartnoma imzolayotganlarida o'zaro ishonchga tayanadilar.

E-tijoratda shartnoma tuzilishi va undagi majburiyatlarning bajarilmasligiga, avvalo, uni tuzishda yuzaga keladigan risklar to'siq bo'ladi. Bular shaxsiy ma'lumotlarning zararlanishidan tortib, firibgarlar hujumiga uchrash xavfigacha bo'lishi mumkin.

E-tijorat tushunchasi doimo shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasi bilan yonma-yon yuradi. Shunday ekan e-tijoratda shartnoma tuzish bilan bog'liq xavflardan biri – shaxsga doir ma'lumotlarga zarar yetishi hisoblanadi. Shaxsga doir ma'lumotlar muayyan bir jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot hisoblanadi. Ya'ni insonning tug'ilgan sanasi, ism-familiyasi, passport ma'lumotlari shaxsga doir ma'lumotlar sirasiga kiradi. E-tijoratda oldi-sotdi jarayonini amalga oshiruvchi kompaniyalar o'z faoliyatini amalga oshirish chog'ida ularning platformalarida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarning shaxsiga doir ma'lumotlar bilan ishlaydilar. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasi 2-qismiga asosan mulkdor, operator va uchinchi shaxs tomonidan shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish bu ma'lumotlarning zarur darajada himoya qilinishini ta'minlash sharti bilan faqat ushbu shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha ilgari bildirilgan maqsadlar uchun amalga oshiriladi. Ya'ni yuqorida aytib o'tilgan kompaniyalar o'z foydalanuvchilarining shaxsiga doir ma'lumotlarini xavfsizligiga javob berishi, ularning sizdirilishiga yo'l qo'ymasliklari lozim. Shaxsga doir ma'lumotlarning bunday sizdirilishi foydalanuvchilarning virusli va xavfli havolalarga kirib qo'yishlari, hakerlik hujumlari natijasida ro'y berishi mumkin. Shunday ekan e-tijoratni taqdim etayotgan subyektlar unda xavfsiz elektron muhitni ta'minlashlari lozim. Shaxsga doir ma'lumotlarning sizdirilishi uning subyektlariga nisbatan jinoyat sodir etilishiga, yoki ularning nomidan jinoiy qilmishlar sodir etilishiga olib kelishi mumkin. E-tijorat xizmatlaridan foydalanayotgan shaxslar

² O'RQ-792-son 29.09.2022-yildagi "Elektron tijorat to'g'risida", Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son, 19-modda.

mana shu jihatlarni inobatga olishlari lozim.

E-tijoratda faoliyat yuritishga xavf solib turuvchi omillardan biri – firibgarlar qurboni bo‘lishi xavfi hisoblanadi. E-tijoratda faoliyat yuritish tartib-qoidalarini bilan tanishib chiqmagan va tajribaga ega bo‘lmagan yangi foydalanuvchilarda har xil firibgarlar va fishing hujumlari qurbonlari bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Elektron muhitda foydalanuvchilardan pul undirishga qaratilgan firibgarlik turlari soni doimiy ravishda ko‘payib bormoqda. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng miqyosda rivojlanishi, nafaqat, firibgarlik hujumlarining ortib borishiga sabab bo‘lmoqda, balki noqonuniy va jinoiy faoliyatni tez va deyarli anonim tarzda amalga oshirish imkonini ham taqdim etmoqda. E-tijoratda sodir etilayotgan firibgarlikning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- plastik karta raqamlaridan foydalangan holda;
- asl saytlarning soxta nusxalarini yaratish (domen nomlarini soxtalashtirish);
- soxta savdo maydonchalarini yaratish va ulardan foydalangan holda;
- to‘lov tizimlarining nomukammalligidan foydalangan holda;
- soxta havola (link)lar yuborish orqali va boshqalar.

Bunga misol qilib, ayniqsa, O‘zbekistonda “olx.uz” platformasida firibgarlar faoliyatining avj olib ketganini olish mumkin.

E-tijoratda sotuv uchun joylashtirilgan tovarning tavsifi uning asliga mos kelmasligi yoki sifastiz va nuqsonli mahsulot qabul qilib olish xavfi. An’anaviy tijorat yuritilayotganda oldi-sotdi munosabati ishtirokchilari tovarni o‘z qo‘li bilan ushlab, tekshirib ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar. E-tijoratda esa bu imkoniyat deyarli mavjud emas. Aynan mana shu sabab bilan shartnomada nazarda tutilgan majburiyat bajarilmay qolish holatlari kundalik hayotda ko‘plab uchrab turadi. Masalan, sotuvchi xaridorga mahsulotni yetkazib beradi, lekin mahsulot reklamada aytib o‘tilgan tavsifga mos kelmaydi. Sotuvchi bilan qayta bog‘lanmoqchi bo‘lganda esa, uning kontaktlarini va manzillarini topib bo‘lmaydi. Bu odatda aynan elektron savdo maydonchasi vazifasini bajarishga mo‘ljallanmagan elektron muhitlar (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar)da amalga oshirilgan oldi-sotdi ishlarida yuzaga keladi va natijada majburiyat to‘liq bajarilmaydi.

E-tijoratda tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilmasligiga olib keluvchi omillardan yana biri – shartnoma bandlarining tushunarsiz bo‘lib qolishligi. Elektron tijoratdagi shartnomalar tomonlar o‘rtasida tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmasligi uchun aniq va ikkilanishga olib kelmaydigan bo‘lishi kerak. Shartnoma shartlaridagi noaniqliklar nizolarni keltirib chiqarishi va majburiyatlarning muammosiz bajarilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shartnomalarda mahsulot tavsifi, yetkazib berish shartlari, to‘lov shartlari, qaytarish siyosati va nizolarni hal qilish mexanizmlari kabi tafsilotlarni ko‘rsatish juda muhimdir. Masalan, xaridor va sotuvchi o‘rtasida noutbuklar sotib olish bo‘yicha

elektron tijoratda shartnoma tuzilmoqda. Shartnomada mahsulotlar to'lov olinganidan keyin "zudlik bilan" yetkazib berilishi ko'rsatilgan. Biroq, shartnoma "zudlik bilan" tushunchasi aynan qancha muddatni anglatishini nazarda tutmaydi. Ushbu noaniqlik xaridor tomonidan "bir hafta ichida yetkazib berish" sifatida tushunilisa, sotuvchi "zudlik bilan" tushunchasini "bir oy" sifatida talqin qilishi mumkin. Ushbu noaniqlik xaridor tomonidan norozilik va ehtimoliy nizolarga olib kelishi mumkin. Agar shartnomada "7 ish kuni Ichida" kabi aniq muddat ko'rsatilgan bo'lganida edi, bu noaniqlik kelib chiqmas edi. Shartnomadagi noaniqliklarni bartaraf etish orqali kontragentlar o'z kelishuvlarining aniqligini oshirishlari, nizolar ehtimolini kamaytirishlari va elektron tijorat sohasida shartnomalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlashlari mumkin.

3. | E-TIJORATDA TUZILGAN SHARTNOMALARDA NAZARDA TUTILGAN MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA'MINLASH CHORALARI

3.1 | ESKROU XIZMATI

1995-yilda Amazon deb nomlangan birinchi onlayn-do'kon ochilgan. Xuddi shu yili eBay onlayn-auksioni yaratilgan, u hozir dunyodagi eng yirik elektron do'konlardan biri sifatida tanilgan. Bu kabi elektron marketpleyslarning vujudga kelishi tomonlar o'rtasidagi masofaviy munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator maxsus huquqiy mexanizmlar uchun asos bo'ldi, ular orasida shartli deponentlash ("eskrou") ajralib turadi³.

An'anaviy tijoratda qo'llaniladigan neustoyka, garovga qo'yish, qarzdorning mulkni ushlab turish kabi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash choralaridan tashqari, e-tijoratda tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash choralari ham mavjud va ulardan biri pulni deponentlash hisoblanadi. Pulni deponentlash yoki "eskrou" xizmati – xaridorning to'langan pul mablag'larini shartnomaga doir tegishli majburiyatlar to'liq bajarilguniga qadar ushlab turish xizmatidir. Bunda xizmatini taqdim etuvchilar bankda alohida hisobvarag'i tashkil etadilar va xaridorning e-tijoratda sotib olingan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat uchun amalga oshirishi lozim bo'lgan pul mablag'i ushbu hisobvarag'da majburiyatlar to'liq bajarilguniga qadar saqlab turiladi.

Eskrou shartnomasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u majburiyatlarning bajarilishi kafolati sifatida yuzaga keladi. Bu kafolat tomonlardan biri shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun mo'ljallangan mol-mulkni mustaqil vositachiga berishida ifodalanadi, u muayyan shartlar yuzaga kelganda ushbu mulkni

³ Юридические науки, научный журнал. Условное депонирование (эскроу) как способ обеспечения исполнения обязательств в сфере дистанционной розничной купли-продажи, К.В. Фальковская, 2021.

uchinchi shaxsga o'tkazishi shart. Shartnoma omonatchi (deponant), benefitsiar va eskrou agent o'rtasida tuziladi. Kafolat vazifasini bajaradigan tomon eskrou agenti hisoblanadi⁴.

Eskrou shartnoma bo'yicha to'lov va hisob-kitoblarni ta'minlaydi. U odatda ikki yoki undan ortiq shaxslar tovar-pul munosabatlariga kirishgan hollarda qo'llaniladi, bu esa eskrou agenti tomonidan bir tomon boshqa tomonga ma'lum majburiyatlarni bajarganidan keyin pul mablag'larini bir tomonga o'tkazishida namoyon bo'ladi. Xorijiy amaliyotda bunday xizmatlar banklar, yuridik firmalar, ixtisoslashgan firmalar, notariuslar, advokatlar yoki boshqa eskrou agentlari tomonidan ko'rsatilishi mumkin. Misol uchun, AQSHda eskrou hisoblari odatda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalarda qo'llaniladi, bunda xaridor, sotuvchi va eskrou agent kabi uchta tomon ishtirok etadi, bunda eskrou agent ko'chmas mulk oldi-sotdi bitimining borishini kuzatib boradi va barcha kerakli hujjatlar imzolanganidan so'ng sotuvchining hisobiga eskrou hisobidan pul mablag'larini o'tkazib beradi.

Bir tomondan, eskrou shartnomasini tuzish xaridorni sotuvchining qarorini o'zgartirish va (yoki) mulkni boshqa shaxs(lar)ga o'tkazib yuborishdan himoya qilsa, boshqa tomondan, u sotuvchiga eskrou shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilgan taqdirda, shartnomada belgilangan mablag'lar to'lab berilishini kafolatlaydi⁵.

Qonunchilikka asosan, tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun xaridor tomonidan to'lovni amalga oshirish chog'ida "eskrou" xizmatini ko'rsatuvchi to'langan pul mablag'larini xaridordan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qabul qilib olinganligining tasdig'i olinguniga qadar saqlab turish huquqiga ega. "Eskrou" xizmatini joriy etishda tegishli shartnoma doirasida, agar tovar yetkazib berilmasa yoki tavsifga mos kelmasa, "eskrou" xizmatini ko'rsatuvchi pul mablag'larini xaridorga qaytaradi (asosli da'vo mavjud bo'lganda) yoki, agar tovar xaridor tomonidan olingan va qabul qilingan bo'lsa, pul mablag'lari sotuvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi. Agar xaridor shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati tugagach tovarlar (ishlar, xizmatlar) olinganligi faktini tasdiqlamasa yoki rad etmasa, pul mablag'lari shartnomada nazarda tutilgan muddatda avtomatik ravishda sotuvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi. Elektron tijorat ishtirokchilarining deponentlangan pul mablag'lari "eskrou" xizmatini ko'rsatuvchining mulki hisoblanmaydi va ulardan uning har qanday kontragent oldidagi, shu jumladan davlat oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi mumkin emas.

⁴ Российское правоведение: трибуна молодого ученого, сборник статей. Правовая природа договора эскроу, Н.Е. Тихов, 2022.

⁵ Применение договора эскроу, Ю. Л. Коневина, 2013.

3.2 | MAJBURIYATLAR BAJARILISHIGA TO'SIQ BO'LUVCHI OMILLARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA AYRIM TAVSIYALAR

Yuqorida e-tijoratda shartnoma tuzish xavflari va shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishiga to'siq bo'luvchi omillar haqida so'z yuritdik. Ularni bir eslab oladigan bo'lsak, bular: shaxsga doir ma'lumotlarga yetishi mumkin bo'lgan zararlar, firibgarlar va hakerlar hujumi, e-tijoratda xarid qilingan tovarning tovar tavsifiga mos kelmaslik va nuqsonli tovarni qabul qilib olish ehtimoli, shuningdek, shartnomalarning qiyin va tushunarsiz tushunchalar bilan tuzilishi kabilar.

Ushbu salbiy omillarni bartaraf etish bo'yicha bir qator choralarni amalga oshirish mumkin. Odatda e-tijorat platformalari va boshqa shu kabi saytlarda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarning ro'yxatga o'tish chog'ida kiritgan shaxsga doir ma'lumotlari saqlanib qoladi (cookie files). Bunga ko'pchilik ham e'tibor bermaydi. Qozog'iston e-tijorat savdo maydonchalarida mana shunday muammolar yuzaga kelmasligi uchun qonunchilikka "unutilishni talab qilish huquqi" tushunchasini kiritishni rejalashtirmoqda. Unga asosan mana shunday e-tijorat marketpleyslaridan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar, shartnomadagi majburiyatlar bajarilib bo'linganidan so'ng o'z shaxsiga oid ma'lumotlarni e-tijorat tizimidan o'chirib tashlashni talab qilishi mumkin. O'zbekistonda esa bu huquq hali qonunchilikka joriy etilmagan.

Firibgarlar va hakerlik hujumiga uchrah xavflarini oldini olish uchun esa tekshirilgan va rasmiy elektron tijoratlarida shartnomalar imzolagan maqsadga muvofiqroq bo'ladi. Shuningdek, elektron tijoratni avtomatlashtirish ushbu xavflarni kamaytirish imkonini beradi. Elektron tijoratni avtomatlashtirish – bu elektron tijorat operatsiyalarini yaxshilash va soddalashtirish uchun turli texnologiyalar va dasturiy yechimlarni joriy qilish orqali elektron tijoratni yaxshilash hisoblanadi. Bugungi kunda e-tijoratda sun'iy intellektni joriy etish va uning huquqiy maqomini aniqlash huquqshunoslar oldidagi muhim savollardan biri bo'lib turibdi.

4 | XULOSA

Axborot tizimlari orqali tovarlar va xizmatlarni onlayn xarid qilish va sotishni o'z ichiga olgan elektron tijorat an'anaviy tijoratni butunlay o'zgartirdi. Elektron tijorat an'anaviy tijoratga nisbatan bozorni kengroq qamrab olish kabi ko'plab afzalliklarni taqdim etsa-da, uning huquqiy jihatdan bir qancha xavf va qiyinchiliklari mavjud.

Elektron tijorat bilan bog'liq huquqiy munosabatlar an'anaviy tijoratdan sezilarli darajada farq qiladi. Elektron tijorat bir qator afzalliklar bilan bir qatorda firibgarlik, shartnoma majburiyatlariga rioya qilmaslik va tomonlar o'rtasida ishonchning yo'qligi kabi ehtimoliy xavflar yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Elektron tijoratdagi huquqiy munosabatlar murakkab va shartnoma shartlariga rioya qilishni ta'minlash juda muhimdir.

Elektron tijorat rivojlanishda davom etar ekan, elektron shartnomalarda

belgilangan majburiyatlarni bajarish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron tijorat shartnomalari ko‘pincha elektron hujjatlar va xabarlar yordamida tuziladi va qabul qilinganligi elektron raqamli imzo yoki elektron bildirishnomalar bilan tasdiqlanadi. Shartnoma tuzish va majburiyatlarni bajarish jarayoni tushunarsiz yoki bajarilmagan shartlar bilan bog‘liq xavflarni minimallashtirish uchun shartnomaning tafsilotlariga diqqat bilan e‘tibor berishni talab qiladi.

Elektron tijoratda majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlashning asosiy mexanizmlaridan biri eskrou xizmatlaridan foydalanish hisoblanadi. Ishonchli uchinchi shaxs shartnoma majburiyatlari bajarilgunga qadar pul mablag‘larini ushlab turadigan eskrou xizmatlari xaridorlar va sotuvchilar uchun kafolat darajasini ta‘minlaydi. Ushbu mexanizm mos kelmaslikdan himoya qilishga yordam beradi va kelishilgan shartlar mablag‘lar chiqarilishidan oldin bajarilishini ta‘minlaydi.

Eskrou xizmatlaridan tashqari, elektron tijoratda tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarilishini ta‘minlash choralari orasida shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, firibgarlik va hakerlikdan himoya qilish, mahsulot tavsifi va nuqsonli tovarlarni qabul qilish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish kabilarni ham kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, elektron tijorat shartnomalarini va ular bilan bog‘liq majburiyatlarni samarali amalga oshirish uchun huquqiy muhitni chuqur tushunish, eskrou xizmatlaridan foydalanish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni bartaraf etish bo‘yicha faol choralari ko‘rish kerak. Elektron tijorat biznesni shakllantirishda davom etar ekan, manfaatdor tomonlar xavfsiz va samarali elektron tijorat muhitini ta‘minlash uchun qonunchilik asoslari va xavfsizlik amaliyotlarini qo‘llashda faol bo‘lishlari kerak.

5 | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘RQ-792-son 29.09.2022-yildagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son;
2. O‘RQ-547-son 02.07.2019. “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
3. 21.12.1995. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism), Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.10.2023-y., 03/23/871/0797-son;
4. 29.08.1996. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.11.2023-y., 03/23/878/0852-son;
5. Юридические науки, научный журнал. Условное депонирование (эскроу) как способ обеспечения исполнения обязательств в сфере дистанционной розничной купли-продажи, К.В. Фальковская, 2021;
6. Российское право: трибуна молодого ученого, сборник статей. Правовая природа договора эскроу, Н.Е. Тихов, 2022;
7. Применение договора эскроу, Ю. Л. Коневина, 2013.